

# SHARTNOMA № SH-23

Andijon shahar

«14» 01 2022 yil

Biz kim ushbu shartnomani tuzib imzo chekuvchilar, O'z nizomi asosida ish yurituvchi «MAKRO FARM ANDIJAN» MCHJ rahbari B.D.Tojiddinov kelgusida «Ta'minotchi» deb nomlanadi, Ikkinchi tomondan o'z nizom asosida ish yurituvchi «Haridor» deb nomlanib, quyidagi mavzuda kelishuv shartnomasini tuzdilar: W.P. Kodiyev

## 1. SHARTNOMA MAZMUNI

1.1. Mazkur shartnoma bo'yicha «MAKRO FARM ANDIJAN» MCHJ tomonidan (keyingi o'rinlarda Ta'minotchi) Haridorning talabnomasi bilan hayotiy zarur dori-darmonlar, tibbiy ash'yolar, va sterillangan dorilarni 1-ilova (specifikatsiya) asosida tovarlarni sotadi. Shartnomaga asosan tavarlarning nomi, miqdori, narhi ushbu shartnomaning ajralmas qismi bo'lgan 1-ilovada ko'rsatiladi.

1.2. Sotib oluvchi (keyingi o'rinlarda haridor) esa olingan mahsulot uchun to'liq haq to'lash majburiyatini o'z zimasi oladi.

1.3. Shartnomaning umumiy bahosi 4 161 000 (to'rt million bir yuz oltinchi ming) so'm.

(Ushbu summaga transportda etkazib berish harajati kirmaydi)

| № | Dori darmonlar nomi | O'/b | soni  | narhi    | QQS     | Jami narhi   | Ishlab chiqaruvchi |
|---|---------------------|------|-------|----------|---------|--------------|--------------------|
| 1 | Шприц однораз 1мл   | шт   | 4 000 | 410,00   | QQS siz | 1 640 000,00 | Макро Фарм Андижан |
| 2 | Шприц однораз 2мл   | шт   | 2 000 | 460,00   | QQS siz | 920 000,00   | Макро Фарм Андижан |
| 3 | Шприц однораз 5мл   | шт   | 1 000 | 540,00   | QQS siz | 540 000,00   | Макро Фарм Андижан |
| 4 | Шприц однораз 10мл  | шт   | 500   | 590,00   | QQS siz | 295 000,00   | Макро Фарм Андижан |
| 5 | Марля 5метр         | шт   | 20    | 14300,00 | QQS siz | 286 000,00   | O'zbekiston        |
| 6 | Система для инь №1  | шт   | 200   | 2400,00  |         | 480 000,00   | Xitoy              |
|   | Jami                |      |       |          |         | 4 161 000,00 |                    |

## 2. MAHSULOTNING SIFATI

2.1. «Ta'minotchi» «Haridorga» O'zbekiston Respublikasida Farmakologik ro'yhatdan o'tgan tibbiyotda ishlatilishga ruxsat etilgan. Sifat markirofka va o'ramlari farmaceutik va texnik talablarga javob beradigan hamda sifat sertifikatini yoki tahlil (tekshirish) bayoniga ega bo'lgan dori-darmonlar va tibbiy mahsulotlarni sotadi.

## 3. HISOB KITOB QILISH TARTIBI

3.1. Xisob kitob «Haridor» tomonidan pul o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi

3.2. Shartnoma kuchga kirib, tegishli Gaznachilik bo'limidan ro'yhatdan o'tgandan so'ng 5-ish kunida «Haridor» etkazib beriladigan mahsulotlarning umumiy summasining 30% (foizi) yani 1 248 300 (bir million ikki yuz qirq sakkiz ming uch yuz) so'mni oldindan «Ta'minotchi» ning hisob raqamiga o'tkazib beradi.

3.3. «Haridor» tomonidan 30% oldindan to'lov amalga oshirilgandan so'ng «Ta'minotchi» 60 bank ish kunida mazkur shartnomada ko'rsatilgan miqdorda va narxlarda Davlat standartlariga javob beradigan tibbiy-buyumlar mahsulotlarini «Haridor»ga etkazib beradi.

3.4. «Haridor» qolgan 70% yani 2 912 700 (ikki million to'qqiz yuz o'n ikki ming yetti yuz) so'm mablag'ni 10 bank ish kunida «Ta'minotchi» hisob raqamiga o'tkazib berish majburiyatini oladi.

## 4. TOMONLAR MAJBURIYATLARI

4.1. «Ta'minotchi» mahsulot sifatini, miqdorini, muddatini kafolatlaydi. Sertifikat va boshqa me'yoriy hujjatlar bilan ta'minlaydi

4.2. Tomonlar boshqa tomonning hujjatini rasmiylashtirilishi uchun javobgar emasdir

- berilgan buyurtmaga asosan etkazib berilgan tovar mahsulotni qabul qilishda asossiz rad etilishi natijasida etkazilgan zarar qoplanishini talab qilish huquqiga ega.

- Tavar mahsulotni etkazib berish jarayonida «Ta'minotchi» shartnoma shartlarini va narmativlardan chekinishga yo'l qo'yan bo'lsa «Haridor» ning talabi bilan aniqlangan barcha kamchiliklarni 3 kun muddatda bepul tuzatib berish majburiyatini oladi.

4.3 «Haridor» ko'rsatilgan shartlar bo'yicha mahsulotni qabul qilib va mahsulot haqqini ko'rsatilgan muddatda to'lashni kafolatlaydi.

- «Haridor» kamchiliklarni bepul bartaraf etilishini, yoki ta'minlanishi uchun sarflangan harajatlarni talab qilishi huquqiga ega

- «Haridor» mazkur shartnoma shartlari to'liq bajarmaganligi natijasida etkazilgan zararni qoplashni talab qilish huquqiga ega

4.4 «Ta'minotchi» tomonidan berilgan mahsulotlarni qabul qilish jarayoni O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonun hujjatlari asosida amalga oshiriladi.

## 5. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

5.1. «Ta'minotchi» mahsulotni partiyalab berish huquqiga ega.

5.2. «Ta'minotchi» o'z vaqtida mahsulot etkazib bermasa har bir kechiktirilgan kun uchun 0,5% penya to'laydi. Biroq bunda penyaning umumiy summasi etkazib berilmagan summaning 50% oshmasligi kerak.

5.3. «Haridor» o'z vaqtida mahsulot haqqini to'lamasa har bir kechiktirilgan kun uchun 0,4% penya to'laydi. Biroq bunda penyaning umumiy summasi kechiktirilgan to'lov summasining 50% oshmasligi kerak.

5.4. «Haridor» olgan mahsulot uchun sertifikatni boshqa sotuvchidan olgan mahsulotlar uchun foydalansa 5% penya (penya) to'laydi va O'zbekiston Respublikasi qonunlari asosida hal qilinadi.



5.5. «Sotuvchi» yoki «Haridor» tomonidan penya yoki penya to'lash shartnoma majburiyatidan ozod etmaydi.

5.6. Shartnomaning 2 bandiga asosan «Ta'minotchi» tomonidan sotilgan mahsulot sifatsizligi tegishli hujjatlar bilan 3 kun muddatda tasdiqlansa, u holda «Ta'minotchi» sifatsiz mahsulotni sifatli mahsulot bilan almashtirib beradi va bu bilan bog'liq barcha harajatlarni o'z zimasi oladi.

5.7. «Ta'minotchi»ning hisob varaqasida mahsulot solingan qutilar (tara) idishlar kaytarilishi qayd etilgan bo'lsa qutilar, tara, idishlar 15 kun ichida qaytarilishi shart. Aks holda qutilar idishlar qiymatidan quydagicha jarima to'laydi. 15-kundan kechiktirilsa 50% va 30% undan yuqori kundan kechiktirsa 50% miqdorda penya to'laydi.

5.8 «Haridor» tomonidan sotib olinayotgan mahsulotlarning summasi «Ta'minotchi»ning bankdagi hisob raqamiga o'z vaqtida o'tkazmaganlik holatlari aniqlansa «Ta'minotchi» mahsulotlarni bermaslik huquqiga ega.

## 6. FORS MAJOR

6.1. Tomonlarning birida fors-major (ta'biy ofatlar, yong'in, suv toshqini va v-k) lar sodir etilgan taqdirda shartnomada belgilangan majburiyatlardan qisman yoki to'liq bajarishdan ozod etiladi.

## 7. NIZOLARNI XAL ETISH TARTIBI

7.1. SHartnoma majburiyatlaridan kelib chiqadigan barcha nizolar, tomonlar o'rtasida o'zaro kelishilgan holda hal etiladi. Nizolar vujudga kelganda tomonlar yozma ravishda ogohlantirish hamda bildirishnoma taqdim etadi.

7.2. Tomonlar o'zaro kelishilmagan taqdirda nizolar O'zbekiston Respublikasi hududidagi Iqtisodiy sudlar orqali hal etiladi

## 8. SHARTNOMANI AMAL QILISH MUDDATI

8.1. Shartnoma imzolanadi va tegishli hududiy Gaznachilik bo'limidan ro'yhatdan o'tgandan so'ng qonuniy kuchga kiradi.

8.2. Shartnoma 2022 yil 31-dekabr kunga qadarli amal qiladi.

## 9. QO'SHIMCHA SHARTLAR

9.1. Agar bir tomonda mahsulot sifati, miqdori va summasi to'g'risida o'zgarish bo'lsa, oldindan o'zaro kelishuvga asosan o'zgartirish kiritiladi, va yozma ravishda ikkinchi tomonga ma'lumot beradi.

9.2. «Haridor» «Ta'minotchi»ni har oyning 5 sanasiga qadarli shu oyda zarur bo'ladigon dori vositalari va tibbiy ash'yolarning buyurma ro'yhatini taqdim etadi, bunda tavarining nomi miqdori ko'rsatilishi shart hisoblanadi. «Haridor»ga «Taminotchi» tomonidan prays listlar ko'rsatiladi shunga asosan «Haridor» narhlarga alohida etibor bergan holda tanlov varaqasiga asoslanib 1 oylik ehtiyoj uchun zarur bo'lgan dori-dormonlarni sotib oladi.

9.3. Ushbu shartnoma shartlarini bajarmaslik yoki to'liq bajarmaslik hollarida taraflar O'zbekiston Respublikasining «Ho'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining-huquqiy bazasi to'grisida»gi qonunida belgilangan tartibda javobgardirlar.

9.4. «Haridor» mahsulot haqqini 90 (to'kson) kun muddatda to'lovni amalga oshirmagan taqdirda, undirib olish choralarini ko'rish.

9.5. «Haridor» va «Sotuvchi» o'rtasida tasdiqlangan, solishtirma (aktsverka) dalolatnomasiga asosan akseptsiz mahsulot haqqini undirib olish.

9.6. Shartnoma bir hil yuridik kuchga ega ikki nusxada tuziladi, va har bir tarafga bir nusxadan topshiriladi.

9.7. Shartnomaga kiritilishi lozim bo'lgan barcha o'zgartirishlar va qo'shimchalar taraflaning roziligi bilan amalga oshiriladi.

## TOMONLARNING MANZILLARI:

### «TA'MINOTCHI»

«MAKRO FARM ANDIJAN» MCHJ

Andijon tuman O'rikzor mahalla

AT Asaka bank Andijon viloyat filiali

X/r: 20208000100355733001

INN: 302979457 MFO: 00069

OKED: 71212

Tel: +998-99-901-14-00



Rahbar:

B.D.Tojidinov

### «HARIDOR»

Manzil:

Bank:

X/R:


INN:

OKED:

Tel:

Reg.:

E-mail:



1. Shartnoma loyihasi O'zbekiston Respublikasi «Ho'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy huquqiy bazasi to'grisi»gi Qonunning 21-moddasiga muvofiq qonun hujjatlarida belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunlariga mos keladi.

2. Taraflarga shartnoma loyihasini imzolashni tavsiya etaman.

Huquqshunos.